

Amir Temur kuchli va qudratli davlat asoschisi

Mustanov Sanjar JDPI, magistr

Ilmiy rahbar: JDPI, tarix o'qitish metodikasi

kafedrasi dots. A.Xolmurodov

Amir Temur buyuk davlat arbobi, faoliyati davomida qonunchilik va adolatga tayangan hukmdordir. Shu sababli uning nomi buyuk davlat arbobi, yengilmas iste'dodli sarkarda sifatida yetti iqlimga mashhur bo'ldi. U tariximizda ulkan markazlashgan qudratli davlatni tashkil etdi. Qudratli muntazam armiyani vujudga keltirdi. Jahonda mislsiz ilmiy-madaniy va ma'rifiy muhitni yaratdi. Jahon miqyosidagi me'morchilik ishlarini rahnamosiga aylandi.

Amir Temur iqtisodiy munosabatlarning rivoji uchun ko'plab yangiliklar yaratdi. Uning hukmdorligi davrida davlat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi asosiy o'rin tutar edi. Dehqonchilik ko'pincha yerni ijaraga olib, ishlashardi. Unumdor, sug'oriladigan yerlar, bog'lar katta yer egalari, amirlar, beklar harbiy boshliqlarga in'om – suyurg'ol sifatida berilar, ular uchun qat'iy soliq tizimi belgilanadi. Shu munosabat bilan Amir Temur yangi yerlar barpo etishga katta ahamiyat bergan. Yangi yerlarni o'zlashtirganlarga soliq bo'yicha alohida imtiyozlar belgilagan. Hatto turli asboblarni bo'yicha ham yordam uyushtirgan.

Yer-suvdan unumli foydalangan. 1404 yilda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixoning yozishicha, non shunchalik arzon bo'lganki, undan arzon arzon bo'lishi mumkin emasdi. Gurunch esa haddan tashqari ko'p. Bir qop arpa bir miri (ya'ni kumush tanganing to'rtidan biri), bitta qo'y taxminan o'n kumush tanga atrofida bo'lgan.¹ Ushbu faktlar shundan dalolat beradiki, ya'ni dehqonchilik, chorvachilik, polizchilik, bog'dorchilik kabi sohalarda izchil rivojlanib borgan.

Soliq sohasida ham adolat qaror topdi. Bu to'g'rida "Tuzuklar"dagi quyidagi so'zlarni ko'ramiz: "Amr qildimki, xosil yetishgach, soliqni uch bo'lib olsinlar. Agar raiynat soliq to'lovchi yubormanglar. Agar soliq yig'uvchini yuborishga majbur bo'linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so'zlar bilan

¹ Klavix. Dnevnik, s-138.

olsinlar, kaltak-arqon ishlatib ishni urush-so'kishga olib bormasinlar. Ularni band etib zanjir bilan kishanlamasinlar.²

Samarqand va boshqa shaharlarda ko'plab bog'-rog'lar yaratilgan. Ularda olimlar, ulamolar turli tadbirlar o'tkazganlar. Dam olganlar. To'y-tomosha va boshqa tantanalarda san'atkorlar, qiziqchilar, qissaxonlarning chiqishlari tashkil etilgan. Masalan, Samarqanddan g'arbda 1378 yili "Bog'i Behshit" barpo qilindi. 1394 yili "Bog'i Amirzoda Shohrux" bunyod etildi. Shuningdek, "Bog'i Bo'ldi", "Bog'i Dilkusho", "Bog'i Jamol", "Bog'i Zag'on", "Bog'i Baland", "Bog'i Davlatobod", "Bog'i Chinor", "Bog'i Nav", "Bog'i Jahonnoma", "Bog'i Maydon" kabi bog'lar yaratilgan. Bu bog'larning har birida saroy bo'lgan. Bular ham mamlakatning obodonchiligiga va madaniyatiga bo'lgan e'tiborning o'ziga xos ko'rinishi edi.

U hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi uchun ham keng yo'l ochib berdi. Shaharlarda hunarmandchilik soni orti. Kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chalar, bozor rastalari, tim va toqlar vujudga keldi.

Bu davrda Turkistonning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shoxruxiya, Andijon, Termiz, Shaxrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari o'zining tipografik qiyofasi, aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining hunarmandchilik va gavjum savdo markazlariga aylandi. Hunarmandchilikning rivoj topib, uning turli tuman, tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvining kuchayishi shaharlarning tarixiy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarning sonini ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chalar, bozor rastalari vujudga keldi. Ko'pgina shaharlarda zargarlik, misgarlik, ignasozlik, sovutsozlik, toshtaroshlovchilar, yog'och o'ymakorligi shisha pishiruvchilar, ko'nychilik, kamon yasovchilar, pichoqsozlik, egarchilik kabi hunarmandchilik mahallari bo'lgan.³

² Temur tuzuklari, 124-bet.

³ Temur va Ulug'bek davri tarixi. T., 1996, 189-bet.

Hunarmandchilik sohasida to‘qimachilik, kulolchilik, mebel buyumlar yasash, temirchilik va binokorlik yetakchi o‘rnini egallagan edi. Mahalliy va chetdan keltirilgan ipakdan turli nav shoyi gazlamalar tuzish keng yo‘lga qo‘yilgan edi. Atlas, kimxob, banoras va duxobalar qatorida tovlanuvchi yaltiroq xoro, nafis va guldor debo kabi shoyidan to‘qilgan gazlamalarning nomlari nafaqat mamlakatda chet mamlakatlarda ham qadrlangan.

Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, qog‘oz ishlab chiqarish alohida o‘rin tutgan. Shahar yaqinidagi Obirahmat arig‘i sohilida qog‘oz ishlab chiqariladigan maxsus objuvoz va korxonalar bo‘lgan.⁴ Samarqand qog‘ozi O‘rta asr sharqi hattotlari orasida g‘oyat mashhur bo‘lgan.

Bu davrda teri oshlash, charm tayyorlash kasblari ancha rivojlangan. Charmdan yengsiz kamzul, poyafzal, ot-ulov anjomlari tikilgan.

Amir Temur o‘z davlatining kuch-qudratini muttasil oshirib, uni mustahkamlash uchun avvalom u harbiy va iqtisodiy islohat o‘tkazdi. Davlat boshqaruv tizimlarini harbiy strategiya (savkul yasash) va taktikasi (ta‘biyat ul jaysh)ni ishlab chiqdi va qattiq sinovlardan o‘tkazdi.

Otliq askarlar oddiy va saralangan jangchilarga bo‘linib, yengil va og‘ir otliq qo‘shinni tashkil etar edi. Bundan tashqari, Amir Temur gvardiya singari o‘zining maxsus navkarlariga ham ega edi.

Amir Temur lashkarida bu asosiy qo‘shin turlaridan tashqari yana quyidagilar mavjud:

1) pontomchilar (ko‘chma ko‘priklar qurish ish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar). 2) naftandozlar (Gregorian yoki yunon olovini otuvchilar); 3) qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar uchun ishlashni biladigan jangchilar; Amir Temur boshchiligida qamal qilingan ko‘plab qal‘alarning gregorian olovlarni otish va uloqtiruvchi qurollardan mohirona foydalanish natijasida qo‘lga kiritilganligi qo‘shinning shu turi juda katta malakaga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Boyazitga qarshi bo‘lgan jangda Amir Temur gregorian olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o‘rnatib jangga kiritgan.

⁴ “Jizzax haqiqati”, 2012 yil, 9-may.

Amir Temur mamlakatni kuch-qudratini muttasil oshib borishiga katta ahamiyat berdi. Shu munosabat bilan mamlakatni ichki va tashqi savdosini kengaytirish sohasida Samarqand va boshqa shaharlarda rastalar, bozorlar va yo‘llarni obodonlashtirish choralari ko‘rildi, sharqdagi va g‘arbdagi mamlakatlar bilan tijorat-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qildi.

Muarriflar va sayyohlar XIV asr oxiri XV Samarqand Buxoroda bozor, chorsu, tim toq, kappon va boshqa xil savdo-hunarmandchilik maskanlari bo‘lganligidan xabar berishadi. XVI asr boshlarida esa Zahiriddin Muhammad Bobur xotiralarida amir Temur zamonasida vujudga kelgan tartibni qayd etib, shunday yozadi: “Samarqand shahri ajib orasta shahredur, bu shaharda bir xususiyati borkim, o‘zga kam shaharda andoq bo‘lg‘ay. Har xirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-biriga mahlut emastur, tavr rasmedur”.⁵

Bu davrda Samarqand va Xirotda me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at va adabiyot nihoyat darajada taraqqiy etdi. Bu ikki poytaxt shaharlarda ko‘plab hashamatli jamoat binolari qad ko‘tardi. Temuriy hukmdorlar orasida, ayniqsa, Ulug‘bek mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat berdi. U hukmdorlik qilgan davrda bir qancha masjid, madrasa, xonaqoh, hammom, sardoba va karvonsaroylar qurildi. Avvalo amir Temur davrida qurib bitkazilmagan talaygina binolar oxiriga yetkazildi. Masalan, Amir Temur maqbarasining kirish peshtoqi, Shohizinda ansabmlidagi Ko‘kgumbaz masjidi, Yassidagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga qurilgan binolar shular jumlasidandir.

Klavixoning kundaligida Amir Temur zabt etgan mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, sohibqironning tashabbusi bilan barpo etilgan binolar, saroydagi tartib-qoidalar, boshqa davlatlar bilan siyosiy va savdo aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Sohibqiron Samarqand, Xitoy, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlarda fozil kishilarni jamlashga, ularning ilm-fan bilan shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga katta e'tibor berdi. Natijada Movarounnarhda

⁵ Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur. Toshkent, 1994 yil, 130-bet.

kuchli ilmiy, adabiy muhit yaratildi. Ayniqsa, Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.

Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek xalqi (u paytda Turkiston xalqi) erkin nafas ola boshladi. Mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti rivojlandi, xalq farovonligi yaxshilandi. Ilm-fan va ma'naviy ma'naviy hayot taraqqiy etdi. Samarqand hamda Hirotida aniq va gumanitar fanlar yo'nalishida ilmiy maktablar tashkil topdi, olamga mashhur olimu fuzalolar yetishib chiqdi.⁶ Bugungi kunda o'zbek millati deb atalgan xalq jahonga tanildi. Milliy mushtaraklik, o'zlikni anglash, o'zbekka xos milliy mentalitet asoslari qurildi.

Bugun yangilanayotgan O'zbekistonimiz rivojlanishning yorqin yo'liga chiqib olgach, yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lib, xalq farovonligi tabora yaxshilanayotgan ekan bunda bobomiz, sohibqiron Amir Temur qoldirgan ma'naviy merosning o'rni kattaligi shubhasizdir.

⁶ Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T., 2015, 473-bet.